# Xizmatlar sohasining rivojlanishi

Bugungi kunda xizmatlar sohasi Farg’ona viloyati iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi.

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra Farg‘ona viloyatida 2019-yil yanvar-dekabr oylarida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 11 280,0 mlrd. so‘mga teng bo‘ldi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur`ati 109,4 % ni tashkil etdi.

**Farg`ona viloyatida yanvar-dekabr holatiga ko`rsatilgan xizmatlarining xajmi va o`sish sur`atlari.**




2019-yil yanvar-dekabr oylarida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan 2 042,1 mlrd. so‘mga oshdi.

## 2019-yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko‘rsatkichlari

| | Hajmi, mlrd. so‘m | O‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur`ati, % |
|---|---|---|
| **Xizmatlar - jami** | **11 280,0** | **109,4** |
| shu jumladan: | | |
| aloqa va axborotlashtirish xizmatlari | 663,8 | 110,0 |
| moliyaviy xizmatlar | 1 604,8 | 154,4 |
| transport xizmatlari | 2 379,9 | 102,3 |
| shu jumladan: avtotransport xizmatlari | 2 211,5 | 101,7 |
| yashash va ovqatlanish xizmatlari | 290,4 | 101,4 |
| savdo xizmatlari | 3 633,3 | 104,6 |
| ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar | 347,6 | 100,3 |
| ta’lim sohasidagi xizmatlar | 460,9 | 105,4 |
| sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar | 229,1 | 109,2 |
| ijara xizmatlari | 309,5 | 103,0 |
| kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta’mirlash bo‘yicha xizmatlar | 335,7 | 100,2 |
| shaxsiy xizmatlar | 586,3 | 103,4 |
| me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar | 128,2 | 108,0 |
| boshqa xizmatlar | 310,5 | 101,4 |

Eng yuqori o‘sish suratlari moliyaviy xizmatlar (154,4 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlar (110,0 %), sog‘liqni saqlash sohasidagi (109,2 %), me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (108,0 %) kabi xizmat turlarida qayd etildi.

**2019-yil yanvar-dekabr oyida ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so‘m.**



Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida eng yuqori hajm savdo xizmatlarida 3 633,3 mlrd. so‘m, transport xizmatlarida 2 379,9 mlrd. so‘m, moliyaviy xizmatlarda 1 604,8 mlrd. so‘m, aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida 663,8 mlrd. so‘mni tashkil etganini ko‘rish mumkin.

**Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar tarkibi, %**




2019-yil yanvar-dekabr oylarida yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar hajmi Farg‘ona viloyatida 290,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Shundan, yashash bo‘yicha xizmatlar 33,5 mlrd. so‘m, oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta’minlash bo‘yicha xizmatlar 256,9 mlrd. so‘mni tashkil etgan.

## 2019-yil yanvar-dekabr oylarida xizmatlar tarkibi
*(jami hajmga nisbatan, %)*

### Eng kam ulush

Boshqa xizmatlar 2,8 %




Ijara xizmatlar 2,7 %



Yashash va ovqatlanish xizmatlari 2,6 %



Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar, 2,0 %



Me'morchilik sohasidagi xizmatlar 1,1 %



### Eng katta ulush

Savdo xizmatlari 32,2 %



Transport xizmatlari 21,1 %



Moliyaviy xizmatlar 14,2 %



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 5,9 %



Shaxsiy xizmatlar 5,2 %



Ta'lim sohasidagi xizmatlar 4,1 %



Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar 3,1 %



Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash 3,0 %



Xizmatlar tarkibida eng katta ulushlarni savdo xizmatlari (32,2 %), transport xizmatlari (21,1 %), moliyaviy xizmatlar (14,2 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (5,9 %), shaxsiy xizmatlar (5,2 %) hamda ta’lim sohasidagi xizmatlar (4,2 %) tashkil etadi.

**2019-yil yanvar-dekabr oylarida ko‘rsatilgan transport xizmatlari tarkibi, %**




2019-yil yanvar-dekabr oylarida transport xizmatlari hajmi Farg‘ona viloyatida 2 379,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Shundan, avtotransport xizmati 2 211,5 mlrd. so‘mni, jami transport xizmatlarining 92,9 % ni tashkil etadi.

## 2019-yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur`ati, %




Xizmatlar sohasining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish suratlari moliyaviy xizmatlar (154,4 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlar (110,0 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (109,2 %) hamda me'morchilik sohasidagi xizmatlar (108,0 %) hissasiga to'g'ri keladi.

## 2019-yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi

| | Hajmi, mlrd. so‘m | O‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur`ati, % |
|---|---|---|
| **Farg‘ona viloyati** | **11 280,0** | **109,4** |
| Farg‘ona sh. | 5 256,7 | 114,8 |
| Qo‘qon sh. | 1 459,7 | 107,9 |
| Quvasoy sh. | 170,0 | 103,1 |
| Marg‘ilon sh. | 1 136,4 | 107,5 |
| Oltiariq t. | 287,4 | 104,2 |
| Qo‘shtepa t. | 165,5 | 102,4 |
| Bag‘dod t. | 229,7 | 103,2 |
| Buvayda t. | 228,1 | 102,1 |
| Beshariq t. | 240,2 | 103,2 |
| Quva t. | 249,7 | 102,7 |
| Uchko‘prik t. | 299,1 | 102,3 |
| Rishton t. | 222,4 | 103,7 |
| So‘x t. | 94,0 | 103,4 |
| Toshloq t. | 221,6 | 102,3 |
| O‘zbekiston t. | 255,8 | 105,4 |
| Farg‘ona t. | 303,1 | 103,1 |
| Dang‘ara t. | 211,4 | 102,8 |
| Furqat t. | 109,9 | 104,5 |
| Yozyovon t. | 139,3 | 103,2 |

2019-yil yanvar-dekabr oylarida o‘tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o‘sish sur`atlari Farg‘ona (114,8 %), Qo’qon (107,9 %), Marg`ilon (107,5 %) shaharlarida hamda O‘zbekiston (105,4 %), va Furqat (104,5 %) tumanlarida qayd etildi.

**2019-yil yanvar-dekabr oylarida Farg‘ona viloyatida jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi**

*(jami hajmga nisbatan %)*




2019-yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlar hajmiga nisbatan eng yuqori ulushni Farg‘ona (46,6 %), Qo‘qon (12,9 %) va Marg‘ilon (10,1 %) shaharlarida hamda Uchko’prik (2,7 %), Farg‘ona (2,7 %) tumanlarida qayd etildi.

Xizmatlari sohasi statistikasi bo‘limi

71-230-87-28